



Yo'l chiptasi uchun kompensatsiya

2-betda o'qing



Mehnat ta'tilidan chaqirib olishga yo'l qo'yilmaydi

4-betda o'qing

INSON va qonun

2024-YIL
28-MAY
SESHANBA

№ 21
(1433)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT" milliy huquqiy axborot markazi nashrlariga obuna bo'ling!



"Adolat nashrlari" telegram kanalida kuzating!

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/



3-betda o'qing

Huquqiy targ'ibot ko'lami kengayadi



5-betda o'qing

Hisobchiga intizomiy jazo chorasi qo'llanildi

Fuqaro G.S.ning tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi hisobchisi tomonidan homiladorlik va tug'ish ta'tili uchun to'lanishi lozim bo'lgan nafaqa puli kam to'langanidan norozi bo'lib qilgan murojati Bo'zatov tuman adliya bo'limi tomonidan qonun doirasida o'rganildi.

"YILNING ENG YAXSHI XODIMI" ANIQLANDI

Hududiy adliya organlari tizimida to'rtta nominatsiya bo'yicha yilning eng yaxshi xodimlari aniqlandi.

"Eng yaxshi adliya bo'limi xodimi" nominatsiyasi bo'yicha 1-o'rin Toshkent shahar, Shayxontohur tuman adliya bo'limi boshlig'i Farxod Akbarovga nasib etdi. Samarqand viloyat, Bulung'ur tuman adliya bo'limi boshlig'i Sardorbek Majidov 2-o'ringa, Jizzax viloyat, Do'stlik tuman adliya bo'limi boshlig'i Bunyod Ikromov 3-o'ringa munosib deb topildi.

"Eng yaxshi davlat xizmatlari markazi xodimi" nominatsiyasi bo'yicha esa 1-o'rin Qoraqalpog'iston Respublikasi, Taxiato'sh tuman DXM bo'lim boshlig'i Aybek Orazimbetovga nasib etdi. Farg'ona viloyat, Farg'ona shahar DXM direktori Davlyatyor Ortiqov 2-o'rin, Toshkent viloyat, Angren shahar DXM bo'lim boshlig'i Zuxriddin Malikov va Xorazm viloyat, Urganch tuman DXM direktori Dilshod Raxmanovlar esa esa 3-o'rin sohibi bo'lishdi.

Shuningdek, "Eng yaxshi yuridik xizmat ko'rsatish

markazi xodimi" nominatsiyasi g'oliblari ham aniqlandi. 1-o'rin Xorazm viloyat, Urganch tuman yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i Jasur Atadjanovga nasib qildi.

2-o'ringa Qashqadaryo viloyat, Kitob tuman yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i Sardorbek Raxmonov, 3-o'ringa esa Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qo'ng'iro't tuman yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i Aydos Kaliyev munosib deb topildi.

"Eng yaxshi FHDY organi xodimi" nominatsiyasiga ham nomzodlar ko'p edi. Ular orasidan Sirdaryo viloyat, Guliston shahar FHDY bo'limi mudirasi Gulihayo Rasulova 1-o'rin sohibasi bo'ldi.

2-o'rin Toshkent viloyat, Olmaliq shahar FHDY bo'limi 1-toifali inspektori Lobarxon Sobitovaga, 3-o'rin esa Qashqadaryo viloyat, Yakkabog' tuman FHDY bo'limi mudirasi Mashhura Maxammadiyevaga nasib etdi.

O'z muxbirimiz



6-betda o'qing

Fojia sababchisi kim?

2 QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR



YO'L CHIPTASI UCHUN KOMPENSATSIYA

Qonunchilikka ko'ra, "Xorijda ish" mehnat migratsiyasi elektron dasturiy majmuasida ro'yxatdan o'tgan va tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarga:

- ☑ xorijiy tillar yoki kasb bo'yicha malaka imtihonlarini topshirish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash uchun, basharti ular muvaffaqiyatli topshirilganda va sertifikat olinganda – BHMning 3 baravarigacha (1 mln 20 ming so'm) miqdorda;
- ☑ xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirishga "ishchi viza"ni rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash uchun – BHMning 5 baravarigacha (1 mln 700 ming so'm) miqdorda;
- ☑ yo'l chiptasini xarid qilish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash uchun – BHMning 2 baravarigacha (680 ming so'm) miqdorda kompensatsiya to'lanadi.



ISHGA OLGANLARGA SUBSIDIYA

Mehnat migratsiyasidan qaytgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga har bir ishga olingan xodim uchun 12 oy davomida oyiga 500 ming so'mdan subsidiya to'lanadi (bundan budjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar mustasno).

Bunda:

- ☑ subsidiya 2024-yil 1-iyundan 2026-yil 1-yanvargacha qadar ishga qabul qilingan shaxslarga nisbatan to'lanadi;
- ☑ mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxs bilan tuzilgan va Yagona milliy mehnat tizimida ro'yxatdan o'tkazilgan mehnat shartnomasi subsidiya to'lash uchun asos bo'lib hisoblanadi;
- ☑ mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslar deb xorijda 3 va undan ortiq oy mobaynida mehnat faoliyati bilan shug'ullanib, yashash manziliga qaytib kelganligiga bir yildan ko'p vaqt bo'lmagan shaxslar tushuniladi.

BEPUL TIBBIY KO'RIK DAN O'TKAZILADI

Qonunchilikka ko'ra, quyidagilar yo'lga qo'yiladi:

- ☑ mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslar hamda ularning oila a'zolarini bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazish;
- ☑ mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan, ijtimoiy ahamiyatli kasallikka chalingan shaxslarga tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari ro'yxatiga muvofiq bepul tibbiy yordam ko'rsatish amaliyoti.

AVTOMATIK BLOKLASH TIZIMI BILAN LOYIHALASH TARTIBI JORIY ETILADI

Qonunchilikka asosan, MSK-64 shkalasi bo'yicha 8 va undan yuqori ballik seysmik faol zonalarida yangi qurilishi rejalashtirilayotgan 5 qavatdan yuqori tibbiyot obyektlari hamda 9 qavatdan yuqori binolarni aktiv seysmik himoyalash qurilmalari, shu jumladan, seysmoizolyatsiya va dempfer uskunalarini bilan loyihalash amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, yangi qurilishi rejalashtirilayotgan xavflilik omili III – IV toifa bo'lgan obyektlarda gaz va elektr tarmoqlarini kuchli zilzila paytida avtomatik bloklash tizimi bilan loyihalash tartibi joriy etiladi.



120 MILLION SO'MGACHA IPOTEKA KREDITI

"Mahalla yettiligi" tavsiyasi asosida Kambag'allikdan chiqarish dasturiga kiritilgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo'lgan shaxslarga ipoteka kreditlarini ajratish amaliyoti joriy etiladi.

Bunda:

- ☑ ipoteka kreditlari 120 million so'mgacha miqdorda, 20 yilgacha muddatga, Markaziy bankning asosiy stavkasidan to'rt foiz bandga yuqori stavkada yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash maqsadlari uchun ajratiladi;
- ☑ ipoteka krediti bo'yicha dastlabki badalning bir qismini qoplash uchun – ajratiladigan kreditning 15 foizi miqdorida hamda foiz to'lovlarining bir qismini qoplash uchun – kredit muddatining birinchi 5 yili davomida 12 foizdan oshgan qismiga subsidiya to'lanadi.



IJTIMOY XIZMATLAR KO'RSATISH TAKOMILLASHTIRILADI

Qonunchilikka muvofiq:

- ☑ tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan yoki jabrlanish xavfi ostida bo'lgan xotin-qizlarga himoya orderi talab etmagan holda ijtimoiy, psixologik va yuridik xizmatlar ko'rsatish tartibi joriy etiladi;
- ☑ xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holati ichki ishlar organlari navbatchilik qismining "102" telefon raqamiga kelib tushgan murojaatlar asosida ro'yxatga olinadi;
- ☑ tazyiq va zo'ravonlik holati yoki ularni sodir etish xavfi aniqlangan paytdan e'tiboran 24 soat ichida quyidagilar amalga oshiriladi:
- ☑ xotin-qizlar faoli va mahalladagi profilaktika inspektori ishtirokida tazyiq va zo'ravonlikni sodir etgan shaxs bilan suhbat o'tkaziladi;

- ☑ profilaktika inspektori tomonidan himoya orderi rasmiylashtiriladi;
- ☑ tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlari markaziy tuman (shahar) shifoxonalari shoshilinch qabul bo'limlariga joylashtiriladi;
- ☑ rasmiylashtirilgan himoya orderlari va jabrlangan shaxslarga doir ma'lumotlar "Inson" markazlariga "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi orqali yuboriladi.



BIRLAMCHI KO'MAK XONALARI

Jizzax, Navoiy va Xorazm viloyatlarida tazyiqdan jabrlangan shaxslarga ruhiy inqiroz holatida birlamchi tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish maqsadida, shoshilinch qabul bo'limlarida tunu kun ishlaydigan birlamchi ko'mak xonalari tashkil etiladi.

Bunda birlamchi ko'mak xonalari:

- ☑ jismoniy va ruhiy holatini yaxshilash uchun tazyiq va zo'ravonlikka uchragan, o'z joniga suiqasd qilgan yoki o'z joniga qasd qilishga moyilligi bo'lgan xotin-qizlar hamda ularning voyaga yetmagan farzandlari uch sutkadan ko'p bo'lmagan muddatga joylashtiriladi;
- ☑ shoshilinch birinchi yordam, shu jumladan ruhiy, psixoterapevtik yordam ko'rsatiladi, shuningdek, yuqumli kasalliklar mavjudligi to'g'risida tahlillar o'tkaziladi.

MAXSUS PORTAL ISHGA TUSHIRILADI

Aholi uchun raqamli xizmatlardan foydalanishda qulayliklar yaratish maqsadida, respublika hududidagi yashil hudud, bog' va jamoat parklari haqida axborot beruvchi maxsus portal ishga tushiriladi.

Ma'ruf LUKCHAYEV,
"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul
xodimi



Qaysi kasalliklarda operatsiya bepul amalga oshiriladi?



Prezidentimizning 2024-yil 24-may kuni imzolangan “Ma’muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas’uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to’g’risida”gi farmoni mamlakatimizda qonun ustuvorligini bekamu-ko’st ta’minlash, yurtdoshlarimizning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.



HUQUQIY TARG’IBOT KO’LAMI KENGAYADI

Albatta, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining yuksakligi huquqiy demokratik jamiyatning muhim shartidir. Bunga esa asosan huquqiy targ’ibot orqali erishiladi. Shu ma’noda aytganda, mazkur farmon doirasida huquqiy targ’ibot ko’lami yanada kengayadi.

Farmonning 2-bandida tuman, shahar adliya bo’limlari zimmasiga uyma-uy yurish va “Huquqiy ko’mak” aksiyalarini o’tkazish orqali fuqarolar kundalik hayotida aniqlanadigan huquqiy muammolarni bartaraf etish yuzasidan qonunchilikni takomillashtirish bo’yicha takliflar tayyorlash, “mahalla yettiligi”ga qonunchilik hujjatlarining mohiyati va ahamiyatini oddiy va xalqchil tilda yetkazish, shuningdek, ular tomonidan “Online-mahalla” platformasiga kiritilgan aholining kundalik hayotidagi huquqiy masalalarga oid muammolarini hal etib borish vazifasi yuklatilgan. Mazkur jarayonda adliya xodimlari o’z-o’zidan huquqiy targ’ibotni amalga oshiradi. Aytaylik, uyma-uy yurgan paytda xonadon sohibi o’zini qiziqtirgan yoki qiynayotgan masalada murojaat qiladi. Adliya xodimi esa unga tegishli huquqiy tushuntirishni beradi. “Mahalla yettiligi” bilan ishlash mobaynida ham xuddi shunday holat yuz berishi tabiiy.

Yoki yoshlar, xotin-qizlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini qonunchilik hujjatlarida belgilangan imtiyozlar, preferensiyalar, subsidiyalar, grantlar va davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashning boshqa turlari hamda ulardan foydalanish tartibi haqida xabardor qilish jarayoni yoki davlat organlari va tashkilotlarining tuman (shahar) bo’linmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarida yagona huquqni qo’llash amaliyotini shakllantirishda ularga metodik yordam ko’rsatib borish ham huquqiy targ’ibot bilan chambarchas bog’liq. Shuningdek, “Madad” nodavlat notijorat tashkilotining huquqiy maslahat byurolari tomonidan aholiga bepul huquqiy maslahatlar beriladi, shuningdek, nizolarni sudgacha va sud orqali hal etishda zarur bo’ladigan protsessual hujjatlarni tayyorlashda ko’maklashiladi.

Aholining barcha qatlamlari, xususan yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish masalasi farmonning 4, 5, 6-bandlarini o’z ichiga olishi huquqiy targ’ibotning nechog’lik zarur hamda muhim vazifa ekanligidan dalolat beradi. Xususan, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarida “Mahalla huquqshunosi” loyihasi amalga oshiriladi. Loyiha doirasida esa yig’in raislarining huquqiy bilim va ko’nikmalarini uzluksiz oshirib borishga qaratilgan qisqa muddatli bepul o’quv kurslari tashkil etiladi.

Bundan tashqari, kelgusi o’quv yilidan boshlab Adliya vazirligining maxsus elektron platformasi orqali huquq fani o’qituvchilarining kasbiy bilim va ko’nikmalarini uzluksiz oshirib borish hamda ularni metodik

ta’minlash tizimi yo’lga qo’yiladi. Shuningdek, o’quvchilar o’rtasida “Huquq bilimdoni” fan olimpiadasi, huquq fani o’qituvchilari o’rtasida “Eng yaxshi huquq o’qituvchisi” ko’rik-tanlovi o’tkazib boriladi. Bu tanlov va bellashuvlar o’quvchilarga ham, o’qituvchilarga ham katta motivatsiya beradi. Ya’ni, ularni tengdoshlaridan, hamkasblaridan peshqadamroq bo’lishga undaydi, tajribasi va mas’uliyatini oshiradi.

Sir emaski, bugungi zamon yoshlari o’z hayotini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilolmaydi. Bino-barin, ularga darslarni ana shu vositalar orqali tushuntirish yaxshi samara beradi. Prezident farmonida maktab o’quvchilarining huquqiy bilimlarni mustaqil o’zlashtirishiga qaratilgan ko’rgazmali o’quv qo’llanmalari, videoroliklar, kompyuter o’yinlari va mobil ilovalar yaratilishi qayd etilgan boisi ham shundan.

E’tirof etish kerak, 2024-yil 1-iyundan boshlab Adliya vazirligi tomonidan davlat organlari va tashkilotlarining faoliyat yo’nalishlaridan kelib chiqib huquqiy targ’ibot materiallari tayyorlanadi hamda ularning eng quyi bo’g’inigacha Yagona huquqiy axborot almashish tizimi orqali yuboriladi. Davlat organlari va tashkilotlarida o’z faoliyati sohasiga oid huquqiy axborotlarni aholiga yetkazish faoliyatini tashkil qilish hamda muvofiqlashtirishga mas’ul bo’linmalar belgilanadi. Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan qonunchilik hujjatlari va islohotlar mazmun-mohiyatini aholiga yetkazish darajasi va sifati ular faoliyatining samaradorligini baholash mezonlaridan biri hisoblanadi.

Hamyurtlarimiz uchun yana bir xushxabar shuki, haftaning har chorshanba kuni mahallalarda “Huquqiy targ’ibot kuni” etib belgilandi. Unda tuman (shahar) adliya bo’limlari, shu jumladan, yuridik xizmat ko’rsatish markazlari, FHDY organlari, davlat xizmatlari markazlari tomonidan manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda “Online-mahalla” platformasiga kiritilgan va joylarda aniqlangan muammolarning huquqiy yechimlariga qaratilgan manzilli huquqiy targ’ibot tadbirlari tashkil qilinadi. Aholi uchun eng dolzarb masalalarni aniqlash orqali ular yuzasidan huquqiy tushuntirish va maslahatlar berib boriladi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari uchun imtiyozlar va moddiy yordam berish, nafaqa tayinlash, ishsizlikdan himoyalani, vaqtinchalik ish bilan ta’minlash, ijtimoiy yordam olish tartibi bo’yicha tizimli huquqiy targ’ibot tadbirlari o’tkaziladi. Kundalik hayotda eng ko’p zarur bo’ladigan davlat xizmatlaridan foydalanish tartibi hamda ulardan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va boshqa elektron resurslar orqali foydalanishning afzalliklari tushuntiriladi.

Yana bir gap. Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish hamda ularning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirishga qaratilgan “Mamlakat kelajagi – qonunga itoatkor va huquqbuzarlikka toqatsiz yoshlar bilan” g’oyasini amalga oshirish bugungi kun talabidir. Albatta, bu jarayonda adliya organlari va muassasalari, shu jumladan, Toshkent davlat yuridik universiteti hamda yuridik texnikumlar yoshlar o’rtasida huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish, ularda qonunlarga hurmat, mamlakat taqdiriga daxldorlik hamda vatanparvarlik hissini kuchaytirishga qaratilgan kompleks huquqiy targ’ibot tadbirlari hamda “Tengdoshimga huquqiy yordam” tadbirlarini o’tkazib borishga mas’ul hisoblanadi. Qolaversa, huquqshunoslik kasbining obro’si va nufuzini oshirish, yoshlarda ushbu kasbga nisbatan hurmat va faxr tuyg’ularini shakllantirish, ularni huquqiy bilim olishga qiziqtirish bo’yicha amaliy tadbirlarni tashkil qilish, yoshlarning huquqiy bilimlarini yuksaltirishga qaratilgan onlayn huquqiy savodxonlik maktabini tashkil etish va u orqali bepul huquqiy o’quv kurslarini joriy etish, ta’lim muassasalarida “Huquqiy bilimlar oyligi”ni o’tkazib borish va yoshlarning huquqiy bilim olishlarini rag’batlantirishga qaratilgan turli huquqiy mavzulardagi seminar-treninglar va tanlovlarni tashkil qilish adliya organlari va muassasalari, shu jumladan, Toshkent davlat yuridik universiteti hamda yuridik texnikumlar zimmasiga yuklatildi.

Xurshid SULTONOV,
“Inson va qonun” muxbiri

Yetim bolalar va ota-ona qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarning huquqlari, ularning ijtimoiy himoyasi bilan bog’liq masalalar davlat idoralari e’tibor markazida bo’lib kelgan. Xususan, adliya idoralari ham ushbu jarayonda bevosita manzilli ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

MUAMMOLAR YUZAGA CHIQMOQDA



Jumladan, tuman (shahar) adliya organlari tomonidan joylarda yetim va ota-onasining yoki qonuniy vakillarining qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarga huquqiy yordam ko’rsatilmoqda. Ularning o’zlari va qonuniy vakillari bilan uchrashib, huquqlari, ular uchun taqdim etiladigan imtiyozlar, qonunchilikdagi o’zgarishlar tushuntirilmoqda. Shuningdek, ularni qiyonayotgan muammolar o’rganilmoqda.

“

Mazkur jarayonda aksariyat hollarda ayrim bolalarning shaxsiga doir hujjatlari yo’qligi, qoshi yetgan bo’lsa-da, maktabga jalb qilinmagani, belgilangan imtiyoz va imkoniyatlardan foydalana olmayotgani singari boshqa muammolar yuzaga chiqmoqda. Dastlabki bosqichda aniqlanayotgan bu kabi masalalar tahlil qilinib, navbatdagi bosqichda tegishli mutasaddilar bilan hamkorlikda ijroga qaratiladi.

Davlat tarbiya, davolash-sog’lomlash-tirish, tibbiy-ijtimoiy muassasalariga qabul qilingan, ushbu muassasalarni tamomlab, akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejar va texnikumlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalariga o’qishga kirgan yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalar o’qishga qabul qilingan kundan boshlab o’qishni tamomlagunga qadar to’liq davlat ta’minotida bo’ladi.

Madina QURBONOVA,
Samarqand shahar adliya bo’limi davlat xizmatlari markazi mas’ul xodimi

4 BILASIZMI?



Mehnat kodeksining 547-moddasida ayni masalaning asosi qayd etilgan. Ya'ni, jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra mehnat nizolari bo'yicha komissiyani tuzish nazarda tutilishi mumkin. Mehnat nizolari bo'yicha komissiyalar tashkilotlarning tarkibiy bo'linmalarida tuziladi.

KOMISSIYA TUZISH MUMKIN



Yakka tartibdagi mehnat nizolari esa tashkilotlar tarkibiy bo'linmalarining mehnat nizolari bo'yicha komissiyalarida jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi tomonidan tashkilotning kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda aniqlanadigan ushbu komissiyalarning vakolatlari doirasida ko'riladi.

Mehnat nizolari bo'yicha komissiyalar ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan har bir tarafdin vakillar soni teng bo'lgan holda, teng huquqlilik asosida tuziladi. Mehnat nizolari bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida yozma shaklda taklif olgan ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi o'n kunlik muddatda o'z vakillarini komissiyaga yuborishi shart. Komissiya a'zolari tegishli kasaba uyushmasi qo'mitasining qarori hamda ish beruvchining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Mehnat nizolari bo'yicha komissiyaning son jihatidan tarkibi va vakolatlari muddati jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi o'rtasida kelishilgan holda tasdiqlanadigan boshqa ichki hujjatda belgilanadi. Komissiya ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi o'rtasida tasdiqlangan nizom yoki boshqa ichki hujjat asosida ish yuritadi.

Komissiya faoliyatini tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladi. Ish beruvchi xodimning roziligi bilan uning zimmasiga komissiya faoliyatini tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash uchun mas'ul shaxs vazifalarini yuklatishi mumkin.

Rustamxon ABULXAYROV,
Toshkent davlat yuridik
universiteti o'qituvchisi



Mehnat kodeksining 119-moddasiga muvofiq, homiladorligi bilan bog'liq sabablarga ko'ra, ishga qabul qilmaslik ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etish sanaladi. Bunga esa yo'l qo'yilmaydi.

MEHNAT TA'TILIDAN CHAQIRIB OLISHGA YO'L QO'YILMAYDI

Ayolning homiladorligini bila turib, uni ishga olishdan g'ayriqonuniy ravishda bosh tortgan yoki ishdan bo'shatgan shaxslar Jinoyat kodeksining 148-moddasiga asosan bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Shuningdek, Mehnat kodeksining 129-moddasiga muvofiq, homilador ayol ishga qabul qilinganda, unga dastlabki sinov belgilanmaydi. Kodeksning 142-moddasida esa homilador ayolning tibbiy xulosaga muvofiq vaqtincha yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'sirini istisno etadigan boshqa ishga o'tkazilishi belgilab qo'yilgan.



Mehnat kodeksining 186-moddasiga asosan, ish beruvchi ushbu kodeksning 398-moddasiga muvofiq homilador ayolning iltimosiga ko'ra, tibbiy xulosaga binoan to'liqsiz ish kunini belgilashi shart. Buning mohiyati shundan iboratki, agar homilador ayol normal ish vaqti haftasiga 40 soatdan kamroq ishlashni xohlasa, unga to'liqsiz ish vaqti haftasiga 30, 20 yoki boshqa ish vaqti soatlari belgilab beriladi. Bu ko'pchilik yaxshi tushunadigan, xalq tilidagi "yarim", "0,75 stavka" kabi jumalarning qonunchilikdagi ifodasi sanaladi.

Bizga ma'lumki, birinchi ish yili uchun har yilgi mehnat ta'tilidan foydalanish huquqi xodimda u ushbu ish beruvchida uzluksiz ishlagan olti oy o'tganidan keyin yuzaga keladi. Biroq Mehnat kodeksining 227-moddasiga asosan, homilador ayollar bundan mustasno. Olti oy o'tguniga qadar ayollarning xohishiga ko'ra, ularga – homiladorlik va tug'ish ta'tilidan oldin yoki undan keyin har yilgi mehnat ta'tili beriladi.

Ushbu kodeksning 229-moddasiga asosan, xodimlar homiladorlik va tug'ish ta'tilining muddati boshlangan hollarda har yilgi mehnat ta'tilini uzaytirish yoki boshqa muddatga ko'chirish huquqiga ega. Mazkur kodeksning 232-moddasiga asosan, homilador ayollarni har yilgi mehnat ta'tilidan chaqirib olishga yo'l qo'yilmaydi. Kodeksning 392-moddasiga ko'ra esa, homiladorligi yoki farzandi borligi bilan bog'liq sabablarga ko'ra ishga qabul qilishni rad etish yoki mehnatga haq to'lash miqdorini kamaytirish taqiqlanadi.



Bundan tashqari, 394-moddaga binoan tibbiy xulosaga muvofiq homilador ayollarning ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish normalari avvalgi ishlaridagi o'rtacha oylik ish haqi saqlangan holda kamaytiriladi yoki ular yengilroq ishga yoxud noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan xoli bo'lgan ishga o'tkaziladi. Ishlab chiqarish normalarini kamaytirish, shuningdek, vaqtincha boshqa ishga o'tkazish muddatlari tibbiy xulosaga muvofiq belgilanadi. Homilador ayolga yengilroq ish yoki noqulay ishlab chiqarish omillari ta'siridan xoli bo'lgan ish berish masalasi hal etilguniga qadar, u buning oqibatida qoldirilgan barcha ish kunlari uchun o'rtacha ish haqi saqlangan holda ishdan ozod etilishi lozim.



Mehnat kodeksining 396-moddasiga asosan homilador ayollar faqat o'z yozma roziligi bilan tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga, dam olish kunlaridagi va ishlamaqdigan bayram kunlaridagi ishlarga jalb qilinishi, shuningdek, xizmat safariga quborilishi mumkin. Bunda ish beruvchi mazkur xodimlarni tungi ishlardan, ish vaqtidan tashqari ishlardan, dam olish kunlaridagi va ishlamaqdigan bayram kunlaridagi ishlardan yoki xizmat safaridan voz kechish borasidagi huquqi to'g'risida xabardor qilishi shart.

Mehnat kodeksining 404-moddasiga ko'ra, ayolga tug'uruqqacha yetmish kalendar kun hamda tug'uruqdan keyin ellik olti kalendar kun (tug'ish qiyin kechgan yoxud ikki yoki undan ortiq bola tug'ilgan taqdirda yetmish kalendar kun) homiladorlik va tug'ish ta'tili berilib, qonunchilikda belgilangan, lekin o'rtacha oylik ish haqining yetmish besh foizidan kam bo'lmagan miqdorda nafaqa to'lanadi. Homiladorlik va tug'ish ta'tili ayolga jamlangan holda hisoblab chiqarilib, tug'uruqqacha haqiqatda foydalanilgan kunlar sonidan qat'i nazar, to'liq beriladi.



Ushbu kodeksning 408-moddasiga asosan, homilador ayollar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi, bundan tashkilot (uning alohida bo'linmasi) tugatilgan yoki yakka tartibdagi tadbirkorning ish faoliyati tugatilgan hollar mustasno. Yana bir o'ziga xos jihat shundaki, Mehnat kodeksining 466-moddasiga binoan, homilador ayollar vaxta usulida bajariladigan ishlarga jalb qilinishi mumkin emas.

Mazkur kodeksning 85-moddasiga asosan, jamoa kelishuvlarida yuqoriroq darajada ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar, masalan, homilador ayollar uchun qo'shimcha ish o'rinlari tashkil etayotgan ish beruvchilarga beriladigan imtiyozlar haqidagi normalar nazarda tutilishi mumkin. Bu imtiyozlar ish beruvchilarga amaldagidan past foizlarda va uzoqroq muddatga kredit berish, mol-mulk va yer soliqlaridan ozod qilish, ijtimoiy soliq stavkasini kamaytirish, bojxona to'lovlarini sug'urta kafolatisiz bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat berish va boshqa shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.

N. BORATALIYEVA,
Pop tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish
markazi bosh yuriskonsulti

So'nggi yillarda Davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi bilan fuqarolarning kons titutsiyaviy haq-huquqlarini to'laqonli ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar-dan biri 2020-yil 13-martda "O'zbekiston Respublikasi-ning fuqaroligi to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishidir.



FUQAROLIK OLIISHNING O'ZIGA XOS TALABLARI BOR

Ayni yo'nalishdagi qonunchiligimizga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishi esa bu boradagi amaliy ishlarning izchil davom ettirilayotganidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatilishi shaxsning davlat bilan o'zaro huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi yig'indisida ifodalangan, shu bilan birga, inson qadr-qim-

mati, huquq hamda erkinliklarini e'tirof etish va hurmat qilishga asoslanadigan doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini mustahkamlaydi.

Yuqorida ta'kidlangan qonun-ning 5-moddasida qayd etilishi-cha, 1992-yil 28-iyul holatiga ko'ra mamlakatimizda doimiy yashagan, chet davlat fuqarosi bo'lmagan va respublikamiz fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxs, O'zbekiston hududi-

da yashab, 1992-yil 28-iyulga qadar o'qish uchun O'zbekistondan tash-qariga chiqib ketgan hamda uzluksiz ravishda ta'lim olgan yoxud harbiy xizmatni o'tagan va o'qish yoki harbiy xizmat tugaganidan keyin bir yil ichida O'zbekistonga qaytib kelgan hamda O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingan shaxs, basharti uning chet davlat fuqaroligi mavjud bo'lmasa, ushbu qonun kuchga kirgan kunda O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga ega bo'lgan shaxs, ushbu qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini olgan shaxs O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

Qonun talabiga muvofiq, 2005-yil 1-yanvarga qadar O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingan hamda muqaddam chet davlat fuqaroligida bo'lmagan shaxs xohish bildirgan taqdirda, o'zini O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilgan kunga qadar O'zbekiston Respublikasida kamida o'n besh yil doimiy yashab kelayotgan va mazkur davr mobaynida chet davlat fuqaroli-

gida bo'lmagan shaxs, shuningdek, ota-onasidan biri (yolg'iz otasi yoki onasi) O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olingan, chet davlat fuqaroligini qabul qilmagan va O'zbekiston Respublikasida yashab kelayotgan fuqaro xohish bildirgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi-ning fuqarosi deb tan olinadi.

Shundan kelib chiqib, Termiz tuman adliya bo'limi tomonidan tumanda yashab kelayotgan, biroq fuqaroligi bo'lmagan 50 dan ortiq shaxslarning O'zbekiston Respublikasida 15 yildan ortiq muddat yashaganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlari ilova etilgan holda Termiz tumanlaro sudiga da'vo arizalari kiritildi. Natijada mazkur da'vo arizalari to'liq qanoatlanirildi.

Xulosa o'rnida aytganda, yuqoridagi qonunning qabul qilinishi va hayotga joriy etilishi O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarini to'liq ro'yobga chiqarish, fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish va ta'minlash borasida olib borilayotgan yuksak insonparvar siyosatning hayotiy isbotidir.

Bahodir ASHUROV,
Termiz tuman adliya bo'limi boshlig'i

Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabrda qabul qilingan "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, oliy ta'lim muassasasining kunduzgi, kechki, sirtqi ta'lim shakllarining pedagogika yo'nalishlarida o'qiyotgan shaxslar 3-kursdan boshlab o'qishiga xalaqit bermagan umumta'lim muassasalarida asosiy ish joyi sifatida ishlashi mumkin.

O'QISH VA ISHNI BIRGA OLIB BORAYOTGAN XODIMGGA BARCHA SHART-SHAROIT YARATIB BERILISHI ZARUR!



Bunda ularga o'rta maxsus, kasbiy ma'lumotga ega bo'lgan tegishli lavozimdagi xodimning bazaviy tarif stavkasi singari bazaviy tarif stavkasi belgilanadi. Mazkur qoida hukumatning 2018-yil 5-yanvardagi "Davlat maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari mehnatiga haq to'lash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorining 72-bandida ham qayd etilgan. Qolgan hollarda esa nopedagogik faoliyat bilan shug'ullanishda kursning ahamiyati mavjud emas.

Ishni o'qish bilan birgalikda olib borayotgan talabablari bo'lgan tashkilotlar o'z xodimlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishlari zarur. Jumladan, Mehnat kodeksining 383-moddasida mehnat shartnomasi bo'yicha ishdan ajralmagan holda ta'lim tashkilotlarida tahsil olib, o'quv rejasini bajarayotgan xodimlarga ish joyi bo'yicha o'rtacha ish haqi saqlangan holda o'quv ta'tili, qisqartirilgan ish haftasi hamda mehnat to'g'risidagi qonunchilikda va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan o'zga kafolatlar berilishi ta'kidlangan.

Mehnat shartnomasi bo'yicha ta'lim tashkilotlarida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'qiyotganlarga yillik mehnat ta'tillarini ish beruvchi, ularning xohishiga ko'ra, bakalavriat talabalari uchun davlat attestatsiyasi va bitiruv malaka ishini himoya qilish, magistratura talabalari uchun magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish vaqtiga yoxud imtihonlar hamda laboratoriya-imtixon sessiyalari vaqtiga to'g'rilab berishi shart.

Kechki yoki sirtqi ta'lim shakli bo'yicha ta'lim olayotgan xodimlar uchun belgilangan kafolatlar esa Mehnat kodeksining 385-moddasida qayd etilgan. Unga binoan, oliy ta'lim tashkilotlarida kechki ta'lim shaklida o'qiyotgan birinchi va ikkinchi kurs talabalariga – kamida yigirma kalendar kun, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tashkilotlarida – kamida o'n kalendar kun, oliy va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida sirtqi ta'lim shaklida o'qiyotganlarga esa – kamida o'ttiz kunlik o'quv ta'tili beriladi. Oliy ta'lim tashkilotlarida kechki ta'lim shaklida uchinchi va undan yuqori kurslarda o'qiyotganlarga – kamida o'ttiz kalendar kun, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tashkilotlarida – kamida yigirma kalendar kun, oliy va o'rta maxsus ta'lim, kasb hunar ta'limi tashkilotlarida sirtqi ta'lim shaklida o'qiyotganlarga esa kamida qirq kalendar kun muddatga o'rtacha ish haqi saqlangan holda har yili beriladi.

Ishni o'qish bilan birga olib borayotgan xodimlarga navbatdagi mehnat ta'tillari ular o'quv ta'tillaridan foydalanganligidan qat'i nazar beriladi. Shuningdek, ish beruvchi oliy ta'lim tashkilotlarida sirtqi ta'lim shaklida tahsil olayotgan xodimlarga laboratoriya-imtixon sessiyasida ishtirok etish uchun ta'lim tashkiloti joylashgan yerga borishi va u yerdan qaytib kelishi uchun yiliga bir marta yo'lkira haqining ellik foizidan kam bo'lmagan miqdorini to'laydi. Davlat attestatsiyasidan o'tish uchun bo'lsa xuddi shunday miqdorda yo'lkira haqi to'lanadi.

Ish beruvchi tashkilotlarda talaba bo'lmagan, lekin mehnat faoliyatini yoki pedagogik faoliyatni ilmiy ish bilan birga olib borayotgan shaxslarga asosiy ish joyida o'rtacha ish haqi va lavozimi saqlangan holda falsafa doktori ilmiy darajasini olishga doir dissertatsiyani yakunlash uchun hamda darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalar qo'lyozmalarining mualliflariga – uch oygacha, fan doktori ilmiy darajasini olishga doir doktorlik dissertatsiyani yakunlash uchun – olti oygacha muddatga ijodiy ta'tillar beriladi.

Nuriddin TOYIROV,
Yakkasaroy tuman yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

Fuqaro G.S.ning tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi hisobchisi tomonidan homiladorlik va tug'ish ta'tili uchun to'lanishi lozim bo'lgan nafaqa puli kam to'langanidan norozi bo'lib qilgan murojaati Bo'zatov tuman adliya bo'limi tomonidan qonun doirasida o'rganildi.

HISOBCHIGA INTIZOMIY JAZO CHORASI QO'LLANILDI



Aniqlanishicha, G.S.ga tashkilot rahbarining 2024-yil 8-yanvardagi buyrug'i asosida 2024-yil 4-yanvar kundan 2024-yil 9-may kunlari oralig'ida 126 kalendar kun homiladorlik va tug'ish ta'tili berilgan.

Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan G.S.ga 2024-yil yanvar oyi uchun 21, fevral oyi uchun 21, mart oyi uchun 18, aprel oyi uchun 20, may oyi uchun 6 ish kuni, jami 86 ish kuni hisobidan hisob-kitob ishlari olib borilgan.

Adliya vazirligi tomonidan 2002-yil 8-mayda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Davlat ijtimoiy sug'urta qilish bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi haqida"gi Nizomning 48-bandida "Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa, shu qatori mazkur Nizomning 4-bandiga muvofiq nafaqa tayinlanganda ham, ish haqining 100 foizi miqdorida beriladi", deb belgilangan.

Shunga qaramasdan, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa puli G.S.ning oylik ish haqining 80 foizi hisobidan hisoblanib, 10 million 708 ming so'm nafaqa puli noto'g'ri to'lab berilishiga yo'l qo'yilgan. Ya'ni, G.S. ga 2 million 680 ming so'm nafaqa puli kam to'langani aniqlandi.

Murojaatni o'rganish natijalariga ko'ra, tuman adliya bo'limi tomonidan kiritilgan taqdimnoma asosida fuqaro G.S.ga to'lanmagan 2 million 680 ming so'm miqdoridagi nafaqa puli undirib berilishi ta'minlanib, bo'lim hisobchisiga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo'llanildi.

Kazbek PALUANIYAZOV,
Bo'zatov tuman adliya bo'limi boshlig'i

6 SUD ZALIDAN

Afsuski, mehnatga bo'yni yor bermaydigan ba'zi hamyurtlarimiz, ayniqsa, ayrim noqobil yoshlar o'zgalarning mulkini qo'lga kiritib, mo'may pul topishni o'zlariga kasb qilib olishayotgani achinarli hol, albatta.

O'RGANGAN
KO'NGIL...

Qo'qon shahrida yashovchi J. Qamariddinov, S. Yahyoyev va A. Salimov (ism-shariflari o'zgartirilgan)lar ham ana shundaylardan. Muqaddam o'g'irlik va talonchilik jinoyatini sodir etishgani bois qonuniy jazoga tortilgan bo'lishsa-da, bundan o'zlariga xulosa chiqarmagan.

Gap shundaki, 2023-yil 10-noyabr kuni soat 11:00 larda Jamshid, Saidnozim va Azizjon shaharning Sarbon ko'chasida joylashgan, Qo'qon davlat pedagogika institutiga qarashli stadionga kelishadi. Bu paytda bir nechta talabalar stadion chetidagi stol ustiga kiyimlari, sumka hamda buyumlarini qo'yib, sport bilan shug'ullanishayotgandi. Binobarin, S. Yahyoyev ularni mashg'ulot bilan chalg'iganidan foydalanib, S. Ibrohimovning 3 million so'mlik "Xonor-6" markali, A. Abdullayevga tegishli 2 million so'mlik "Infinix" markali telefonlarni o'g'irlab chiqadi. So'ng J. Qamariddinov undan o'g'irlangan telefonlarni olib sotib yuboradi. Pulni esa jinoiy sheriklariga bermay, o'zining ehtiyoji uchun sarflaydi.

Shu kuni voyaga yetmagan A. Salimov ikkinchi marotaba o'g'irlikka qo'l uradi. Ya'ni, Saidnozim va Jamshidga indamasdan stadionning boshqa tarafida mashg'ulot o'tayotgan talaba K. Sharofiddinovning 2,5 million

so'mlik "Redmi-12" markali telefonini o'g'irlab, pullaydi.

Oradan 2 kun o'tgach, A. Salimov o'g'irlikni davom ettiradi. Aniqrog'i, Qo'qon shahrining Davronbek ko'chasida joylashgan, tadbirkor B. Qayumovning savdo do'konidan bahosi 1 million 200 ming so'mlik avtomashina rulini o'g'irlab, noma'lum shaxsga 150 ming so'mga sotadi.

Buni qarangi, keyingi galda J. Qamariddinov firibgarlik qilishni boshlaydi. Aniqlanishicha, 2023-yil 10-dekabr kuni u ko'chada voyaga yetmagan Sh. Valiyevga murojaat qiladi:

– Uka, telefoningni berib tur, bir tanishim bilan gaplashib olay, – deydi xokisorlarcha.

Soddadil yigitcha esa "Xo'p" degandek bosh irg'ab, uning qo'lga narxi 4 million so'mlik "iphone 11 pro" markali telefonini tutqazadi. Shunda "qahramon"imiz go'yoki qo'ng'iroq qilib gaplashayotgandek tutadi o'zini. Biroq telefon sohibi chalg'iganidan foydalanib, voqea joyidan g'oyib bo'ladi. Keyin telefon apparatini sotib, pulini hamyoniga uradi. Qarasaki, bunday usulda pul topilishi chakki emas. Shu bois, har ikki-uch kunda bu ishni takrorlayveradi. Oqibatda 2023-yil 14-dekabrda 21-dekabr gacha Sh. Valiyevdan tashqari M. Nosirjonovning "Redmi not 9" markali, narxi 2 million 500 ming so'mlik, O. Vohidovga tegishli narxi 1 million 200 ming so'mlik "iphone 7" rusumli, J. Masobirovning "Samsung" markali, bahosi 1 million 800 ming so'mlik telefon apparatlarini qo'ng'iroq qilib olish bahonasida olib, chalg'itib qo'lga kiritadi.

Ko'p o'tmay, qing'ir ishning qiyig'i chiqadi. O'g'ri yigitlar qo'lga olinadi. Negaki, pedagogika instituti talabalari va boshqa jabrlanuvchilarning murojaatiga binoan, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlari ularning iziga tushishgandi. Binobarin, tilga olingan holatlar bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atildi. Jinoyat ishlari bo'yicha Qo'qon shahar sudi esa uchchala yigitni Jinoyat kodeksining tegishli moddalar bilan aybdor deb topib, qonuniy jazoga mahkum etdi. Shuningdek, sud hukmida sudlanuvchilarga muqaddam tayinlangan jazolar ham inobatga olindi.

Nodirjon KIMSANOV,
jinoyat ishlari bo'yicha Qo'qon
shahar sudi sudyasi

Mutaxassislar fikricha, aksar holatlarda yo'l-transport hodisalari yo'l harakati qoidalariga e'tiborsizlik va vaziyatni noto'g'ri baholash sabab bo'lar ekan. Bunga jinoyat ishlari bo'yicha Boyovut tuman sudining ochiq sud majlisida ko'rib chiqilgan quyidagi jinoyat ishi ham misol bo'lishi mumkin.

FOJIA SABABCHISI KIM?



2023-yilning 19-sentabr kuni soat 22:00 larda Boyovut tumani hududidan o'tuvchi "Guliston-Boyovut" avtomobil yo'lining 37-kilometrida ayanchli yo'l-transport hodisasi yuz beradi – T-28x4 rusumli traktor va "Damas" avtomobili to'qnashib ketishi oqibatida "Damas" haydovchisi olgan tan jarohatlari bilan voqea joyida vafot etgan, avtomobilda bo'lgan uch nafar yo'lovchi turli tan jarohatlari bilan shifoxonaga yotqizilgan.

Fojia sababchisi kim?

Sud davlat ayblovchisining xulosasi, sudlanuvchi, jabrlanuvchining qonuniy vakili, jabrlanuvchilar va guvohning ko'rsatmalarini tinglab, jinoyat ishidagi mavjud dalillarni tahlil qilib, sudlanuvchi X.X.ning aybiga to'liq iqrorlik ko'rsatmalaridan tashqari, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomasi va unga ilovalar, sudga oid tibbiy ekspertiza xulosalari va jinoyat ishida to'plangan boshqa dalillar asosida ishni o'rganib chiqdi.

Aniqlanishicha, sudlanuvchi X.X. "Yo'l harakati qoidalarini"ning 59-bandidagi "transport vositasining haydovchisi chorahadan tashqarida chapga burilish yoki qayrilib olishda qarama-qarshi yo'nalishdan harakatlanayotgan transport vositalariga yo'l berishi shart"ligi, 2-bandidagi "O'zbekiston Respublikasi yo'llarida transport vositalarining o'ng tomonlama harakatlanish tartibi belgilangan"ligi va 4-bandining birinchi qismidagi "yo'l harakati qatnashchi-

lari boshqa yo'l harakati qatnashchilarining harakatlanishiga xavf tug'dirmasliklari kerak"ligi haqidagi talablarni buzib, o'z yo'nalishida harakatlanib kelayotgan K.M. boshqaruvidagi avtomashina qarshisiga chiqib ketgan va o'lim bilan bog'liq yo'l-transport hodisasini sodir etgan.

Ushbu yo'l-transport hodisasi sodir bo'lmasligi mumkinmi? Bu savolga javob qidirar ekanmiz, e'tiboringizni uning ishtirokchilari bilan bog'liq ikki jihatga qaratib o'tmoqchimiz.

Sudlanuvchi X.X. 1965-yilda tug'ilgan. Demoqchimizki, u tajribasiz yoki kecha rulga o'tirgan yosh yigit emas. Suyagi rulda qotgan traktorining bunday qo'pol qoida-buzarlik sodir etishiga nima sabab bo'lgan? Javob oddiy: yo'l harakati qoidalariga e'tiborsizlik, ularga amal qilmaslikning odat tusiga kirib qolgan. Uning tun qorong'usida ikkita tirkama bilan ketayotgan traktorini yo'lning qarama-qarshi yo'nalishida haydagani ham buni tasdiqlaydi.

Endi yo'l-transport hodisasi oqibatida vafot etgan "Damas" haydovchisi haqida: guvohlarning ko'rsatmalari va sudga oid tibbiy ekspertiza xulosasi uning avtoavariya sodir bo'lgan paytda mast holatda bo'lganini tasdiqladi. Mastlik sabab u vaziyatni to'g'ri va aniq baholay olmagan. "Damas" ichida bo'lgan yo'lovchilardan biri unga "To'xtang, yo'lda traktor bor, traktor kelayapti" deb baqirganiga qaramay, vaqtida tormozni bosmagan. Uning qaramog'ida uch nafar voyaga yetmagan farzandi bo'lgan...

Sud X.X.ni Jinoyat kodeksining 266-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybdor deb topdi va besh yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinladi.

Bahodir QORAYEV,
Jinoyat ishlari bo'yicha Boyovut
tuman sudi raisi

TARAQQIYOTGA TO'SIQ, XAVFSIZLIKKA TAHDIDDIR



Korrupsiyaviy holatni biror bir omil bilan oqlab bo'lmaydi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Zero, korrupsiyaga qarshi kurashish har bir sof vijdonli insonning, demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchidir", degan fikrlari esa ayni masalaga barchamiz daxldor ekanimizni, bu borada qonun himoyachilarga ko'maklashishimiz zarurligini tasdiqlaydi.

Korrupsiya jamiyat taraqqiyotining muhim omillari sanalgan tinchlik-osoyishtalik, adolat va qonun ustuvorligi kabi ijtimoiy-huquqiy qadriyatlarini yo'q qiladi, milliy xavfsizlikka tahdid soladi, mamlakat rivojiga to'siq bo'ladi.

Sud tizimida korrupsiyaviy omillarning mavjudligi, ularni aniqlash, oldini olish va paydo bo'lishiga imkon beruvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha yetarli tashkiliy-huquqiy asoslarning yaratilmagani, mavjud normalarga qat'iy rioya qilishni ta'minlovchi mexanizmlarning joriy etilmagani sudyalarda mustaqilligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Odil sudlovni amalga oshirishda ichki va tashqi aralashuvlarga zamin yaratib, nopok va munosib bo'lmagan sudyalarda korpusi shakllanishiga sabab bo'ladi. Bu nafaqat qonun ustuvorligining buzilishiga va fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan

huquqining poymol bo'lishiga olib keladi, balki butun sud tizimi faoliyatining yemirilishiga zamin yaratadi. Zero, sudyalarning halolligi va pokligi – bu sud tizimining samaradorligi va beg'arazligining birinchi zarur shartidir.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning eng samarali usullaridan yana biri – aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishdir. Bunda yosh avlodning ta'lim va tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish, ular ongiga halollik va poklik xislatlarini singdirish, korrupsiya illatlarining salbiy oqibatlarini haqida aniq tushuntirishlar berish, bir so'z bilan aytganda, ularning ushbu sohadagi huquqiy bilimlarga ega bo'lishini ta'minlash o'ta muhim vazifalardan biridir.

Shahobiddin HASANOV,
jinoyat ishlari bo'yicha Termiz tuman sudi raisi

Hozirda ijtimoiy sohalarga axborot texnologiyalari kirib bormagan yo'l deyarli qolmadi. O'z navbatida, jinoiy, iqtisodiy va fuqarolik ishlarini ko'rishda sudyalarga elektron dalillarni tekshirish, taqdim etilgan elektron dalillarda qarama-qarshiliklar vujudga kelganda, ularni qonuniy va asosli baholash vazifasi qo'yilmoqda.

Odatda, elektron dalillar saqlovchi qurilmalarda – kompyuter, elektron pochta, lokal tarmoqlar, ovoz yozuvchi qurilmalar, "zip" formatdagi arxivlar va boshqa manbalarda saqlanadi. Sud tomonidan elektron dalillarga baho berilayotganda elektron dalilni saqlovchi qurilma emas, balki uning ichidagi axborot yoki dastur tekshiriladi.

Masalan, Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasida, ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday haqiqiy ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanishi belgilangan. Shuningdek, bu ma'lumotlar guvohning, jabrlanuvchining, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining ko'rsatuvlari, ekspertning xulosasi, ashyoviy dalillar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kintotasvir

Rivojlangan mamlakatlarda axborot texnologiyalari orqali yaratilgan, uzatilgan, qayta ishlanadigan dalillarning yangi turi "elektron dalil", "raqamli dalil", "kompyuter dalili" nomlari ostida ishlatilmoqda.

ELEKTRON DALILLARDAN FOYDALANISH



va fotosuratlardan iborat materiallar, tergov va sud harakatlarining bayonnomalari va boshqa hujjatlar bilan aniqlanishi belgilangan.

Angliyada 2005-yilda qabul qilingan Fuqarolik protsessual qonunining 31-V moddasida "elektron hujjat" iborasiga ta'rif berilgan. Unga ko'ra, elektron hujjat elektron shakldagi har qanday hujjat sanaladi. U quyidagilardan tashkil topadi: elektron pochta hamda telekommunikatsiya vositalaridan jo'natilgan xabarlar, shu jumladan, ovozli xabarlar, ma'lumotlar bazasi, mobil aloqasi hamda saqlash qurilmalarida saqlanadigan hujjatlar.

Elektron dalillar quyidagicha tasniflanadi:

- vujudga kelishiga qarab: dasturiy ta'minotlar, kompyuter texnika vositalarida saqlanayotgan axborotlar, tarmoqqa ulangan ma'lumotlar;
- shakliga qarab elektron hujjatlar, audio yoki videoyozuvlar, elektron yozishmalar (ijtimoiy tarmoq yozishmalari, elektron pochta, SMS, MMS), internet, disklar, kompyuter va flesh-kadagi ma'lumotlar va boshqalar.

Amaliyotda sud ishlarini yuritish jarayonida elektron dalillardan foydalanishning huquqiy asoslari va tartibini takomillashtirish bo'yicha quyidagi

takliflar ilgari surilgan edi. Ayni bu norma qonunlarimizda o'z aksini topib bormoqda. Jumladan, jinoyat va fuqarolik protsessual qonunchiligida "elektron dalil" tushunchasining aniq protsessual tavsiflari, jinoyat va fuqarolik protsessining isbotlash bosqichida "elektron dalil" va "elektron ma'lumot"larni to'plash, tekshirish va ularni protsessual rasmiylashtirishni belgilovchi protsessual normalar ishlab chiqish, "elektron jinoyat ishi" doirasida ishga taalluqli bo'lgan "elektron ma'lumotlar"ni to'plash bo'yicha tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi va sud mansabdor shaxslariga tegishli bo'lgan rasmiy elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan "elektron bayonnoma"ni joriy etish va hokazolara.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Fuqarolik protsessual kodeksiga "Elektron dalillar", "Elektron dalillarni tekshirish", "Elektron dalillarni taqdim etish va talab qilib olish", "Elektron dalillarni taqdim etish majburiyati" va "Elektron hujjatlar" bilan bog'liq huquqiy normalar kiritilishi zarur. Bu esa ayrim protsessual harakatlarni amalga oshirishda yengillik berishi mumkin. Bu iboralar sud ishini yuritishda tarafdorlar uchun yangilik bo'lar edi.

Rustam TEMIROV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
o'qituvchisi

KASABA UYUSHMASINING ROZILIGI KERAKMI?

– Yaqinda bir masalada muammoli vaziyatga duch keldik. Gap shundaki, biz bir xodimga intizomiy chora qo'llash haqida yuridik xizmat ko'rsatish markaziga buyruq loyiha yuborgan edik. Markaz xodimlari kasaba uyushmasi roziligi olinmagan, deb rad qilishdi. Bu holatda mehnat shartnomasi bekor qilinayotgani yo'q-ku, xodimga intizomiy chora qo'llanilganida ham kasaba uyushmasining roziligi olinishi kerakmi?

– Ha, albatta. Ba'zi xodimlarga nisbatan intizomiy chora qo'llashda kasaba uyushmasining roziligi olinishi kerak bo'ladi.

Mehnat kodeksining 44-moddasida xodimlarning vakillik organlari tarkibiga saylangan shaxslarga beriladigan mehnat kafolatlari belgilangan.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida xodimlarning vakillik organlari tarkibiga saylangan va ishlab chiqarishdagi ishidan ozod etilmagan xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llashga, ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilishga, shuningdek, xodimlarning vakillik organlari tarkibiga saylangan xodimlar bilan mehnatga oid munosabatlarni ularning saylab qo'yiladigan lavozimdagi vakolatlarini tugaganidan keyin ikki yil ichida ish beruvchining tashabbusi bilan mazkur shaxslar o'z faoliyatini amalga oshirgan vakillik organining oldindan roziligini olmasdan bekor qilishga yo'l qo'yilmasligi belgilangan.

Agarda siz intizomiy chora qo'llamoqchi bo'lgan xodim kasaba uyushmasi qo'mitasi a'zosi bo'lsa, bu xodimga nisbatan intizomiy chora qo'llashdan oldin shu kasaba uyushmasining roziligi olinishi kerak bo'ladi.

Tushunishimizcha, ushbu xodim kasaba uyushmasi qo'mitasi a'zosi va hamkasbimiz to'g'ri ish tutgan.

Savolga Farg'ona shahar yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i Sherzod TOLIBOV javob berdi



YONG'IN xavfsizligi talablarini bilish shart

Qonunchilikka muvofiq, ochiq maydonlarda yoki binolarda (inshootlarda) belgilangan tartibda tashkil etilgan kiyim bozorlarida tashkilot rahbari evakuatsiya yo'llariga olib boruvchi yo'laklar va o'tish joylaridagi savdo rastalari orasidagi kenglik 2 metrdan kam bo'lmasligini, shuningdek, savdo qatorlarining har 30 metrdan so'ng kengligi kamida 1,4 metr bo'lgan ko'ndalang yo'laklar bo'lishini ta'minlashi shart. Chunki bu yong'in xavfsizligi talablaridir.

Bundan tashqari, yarmarkalar va bozorlarda yong'in sodir bo'lganda odamlarni va moddiy boyliklarni evakuatsiya qilish, binolarni va hududni tark etish rejaları (sxemasi) hamda xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning majburiyatlari ishlab chiqilishi lozim.

S. UBAYDULLAYEV,
Prezident Administratsiyasi Ma'muriy binolarida YXTE 1-bo'linmasi kichik inspektori, kichik serjant

E'LONLAR

Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 10-maydagi 171-um-son buyrug'iga asosan advokatlar Yusupov Jasurbek Ibaydullayevichga 2019-yil 25-oktabrda berilgan L-70663735 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya, Mutalova Dilzoda Abduraxmanovnaga 2018-yil 19-dekabrda berilgan L-70662132 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya hamda advokat Nazirov Botirjon Ikromjonovichga 2024-yil 30-yanvarda berilgan L-70664845 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi tugatildi.

Advokat Asatullayev Musaxon Ne'matullayevichga 2018-yil 17-mayda berilgan GZ 000185-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi uning bergan arizasiga muvofiq Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 15-maydagi 109-um-sonli buyrug'iga asosan tugatildi.

BU QIZIQ!

OnePoll tomonidan AQShning 2 mingdan ortiq aholisi o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijasiga ko'ra, 67 foiz amerikaliklar yomon uyqu oqibatida kichik omadsizliklarga uchrashini aytishgan.



So'rovnoma bo'yicha bunday holatlarning eng keng tarqalgan turlariga ishga buzilgan soch turmagida borish, ko'zoynak yoki kontakt linzalarni taqmaslik, hujjatlarni qoldirib ketish va qahva mashinani bosganda, jo'mrak ostiga finjonni qo'ymaslik kabilar kirar ekan.

Kechasi yotoqdagi noqulay harorat (63 foiz), tunda hojatxonadan foydalanishga ehtiyoj (39 foiz), ertangi kun haqida stress (34 foiz) ishtirokchilarning yaxshi uxlamaslik sabablari qilib ko'rsatilgan.

Eng yaxshi uyqu shanbaga o'tar kechasi bo'ladi. Odamlar ertaga ishga bormasliklari va to'yib uxlashlari mumkinligi haqidagi axborotni miyalariga "yediradilar". Eng yomon uyqu kechalari esa, yakshanbadan dushanbaga, dushanbadan seshanbaga o'tadigan oqshomga to'g'ri kelar ekan.

Respondentlarning 58 foizi yomon uyqu tufayli ishdagi mahsuldorlik pasayishini, 79 foizi esa uyqu sifati keyingi kundagi kayfiyatni to'g'ridan-to'g'ri belgilashini aytgan. Oddiy uyqusiz odamlar ko'p asabiylashadi (41 foiz), harakatchanlik yo'qoladi (38 foiz) yoki o'zlarini baxtsiz his etadilar (36 foiz).

Shoira ABDURASHITOVA,
O'zDJTU talabasi

8 ADLIYA FAXRIYSI

Ayollarni e'zozlash, unga ehtirom ko'rsatish Sharq xalqlariga xos xususiyatidir. Ta'bir joiz bo'lsa, o'zbek ayollari o'z ma'naviyati, madaniyati ajdodlar merosini oilaviy an'analar, rasm-rusumlar, udumlar vositasida saqlab kelayotgan dunyo malikalaridir.

Musallam

OPANING BAXTI



To'maris, Bibixonim, Gulbadanbegim, Zebuniso, Uvaysiy, Nodirabegim va boshqa ko'plab ayollari-miz insoniyat tarixida o'zining jasorati, aqlu zakovati, nafosatu nazokati bilan o'chmas nom qoldirgan. Bugun ham milliy qadriyatlarini saqlab qolish, milliy an'analarni davom ettirish ham ayollar zimmasida. Negaki, ziyoli, ibratli ayollar o'zlaridagi bor fazilatlarini farzandlariga singdirib boradi, kelajak kitobiga muhrlaydi. Ana

shunday ayollardan biri Musallam opa Qurbonovadir.

Musallam opa 1954-yil 30-mayda Qarshi shahrida, ziyoili oilada dunyoga kelgan. Oilada yetti farzandning ikkinchisi bo'lgan Musallam opa yoshligidan huquqshunoslik kasbiga mehr qo'ygan. Shu orzu-havasi uni oliygohga yetakladi, 1971-yilda Toshkent davlat universitetining yuridik fakulteti talabasi bo'ldi.

Taqdir o'sha davrda Musallam opani surxondaryolik Sobirjon Qobilov bilan uchrashtirdi, u Termiz shahriga kelin bo'lib tushdi. Taqdirni qarangki, umr yo'ldoshi ham shu kasb egasi edi. Ikki huquqshunos baxtli hayot kechirishdi. Olti nafar farzandni o'qimishli, zukko qilib tarbiyalab, voyaga yetkazishdi.

Musallam opa mehnat faoliyatini Qiziriq tuman davlat notariusi vazifasidan boshladi. Keyinchalik Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasida ham mas'uliyatli vazifalarda ishladi.

Lekin notariuslik kasbiga sodiq qoldi. Ya'ni, bitta joyda – Termiz shahridagi 3-sonli notarial idorada 2002-yildan 2020-yilga qadar uzluksiz ishladi, xalq xizmatida bo'ldi. Tajribali huquqshunos hamisha o'zining xushmuomalaligi, mehnatsevarligi bilan kasbdoshlariga namuna bo'ldi. 2020-yilda, 64 yoshida nafaqaga chiqib, hozirgi kunda keksalik gashtini surmoqda. Umrining yana bir go'zal pallasini rohatu farog'atda, farzandlari, nevalari davrasida o'tkazmoqda.

Bu ziyoli oiladagi farzandlarning uch nafari ota-onasining izidan borib, huquqshunoslik kasbini tanlashdi. Sanjarbek Surxondaryo viloyat Ichki ishlar boshqarmasida xalqimiz osoyishtaligini qo'riqlashga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Sarvinoz, Shahnoza, Dilshodabonu va Madinabonular ham turli sohalarida ishlab, el xizmatida bo'lib, ota-onasiga rahmat olib kelishmoqda.

Musallam opa sevimli buvijon sifatida o'z nasihatlarini bilan kelajak avlodni tarbiyalamoqda. Endi vaqtini va hayot tajribasini nevalarining tarbiyasiga ajratgan.

Piru badavlat buvijon nihoyatda kamtar ayol. Tajribali huquqshunos o'zining ko'p yillik ish tajribasini doimo yoshlarga o'rgatib, sevimli ustoz nomiga muyassar bo'lgan, qadr topgan ayol. Opaning shogirdlaridan biri Sherziddin Tilovov Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasida, Fahriddin Allayorov esa Adliya vazirligida mas'ul lavozimlarda ishlaydi.

Umr yo'ldoshi bilan uzoq yillar baxtli hayot kechirib, farzandlaru nabiralar, ko'pdan-ko'p shogirdlarni tarbiyalab, el qatoriga qo'shgan Musallam opa bu yil 70 bahorni qarshiladi. Ko'p sonli shogirdlari, hamkasblari, yaqinlari nomidan Musallam opani qutlug' yosh bilan samimiy muborakkob etib, uzoq umr tilaymiz!

Muhabbat HIMMATOVA,
huquqshunos

TALABA TALQINI

YOZILMAGAN
QONUNLAR

Har bir jamiyat va davlatning asosiy ustuni qonun-qoidalaridir. Qonunlar qat'iy bo'ladi, unga amal qilmaganlar esa jinoyatchidir. Bizning jamiyatimizda ham xuddi shunday qonunlar mavjud. Lekin biz nafaqat qonunchiligimizdagi, balki hech qayerda yozilmagan majburiyatlarni ham bajarishimiz hayratlanarli holat. Mazkur yozilmagan qonunlarni men qonun emas, stereotip deb atash o'rinli, deb o'ylayman.

Shoira UMIRZOQOVA,
O'zDJTU talabasi

NEGA STEREOTIPLARDAN VOZ
KECHA OLMAYMIZ?

Stereotiplar shunchalar xalqimizning qon-qoniga singib ketganki, ularni buzish haqiqiy qonunlarni buzishdan ham qo'rqinchliroqdir. Bunga oddiy bir misol haligacha dabdabasi oshsa oshib, lekin kamaymayotgan to'yularimiz. Hech tushunmayman-da, nega xalqimiz yillab mehnat qilib topganini bir kunlik to'yga sarflaydi. Yoki baxtli yashash yaxshi to'y qilish bilan bog'liqmi?

ULAR BIZNI HAM MAJBUR
ETISHMOQDA

Ular deganimda ota-onalarni nazarda tutdim. Ko'pchilik ota-onalar o'z qoliplaridan chiqma olmagani kamdek, o'sha yozilmagan qonunlarni bajarishga farzandlarini ham majbur etishadi. Nega, axir, har doim ham unday emas, dersiz balki. Xo'p, siz haqsiz deylik. Nega unda "fotih qilingan", ya'ni unashtirilgan qiz bilan yigit biroz muddat o'tib bir-birlariga mos emasligini anglab yetsa-yu, yoshlar fotihani bekor qilolmaydi? Ular nimadan hayiqishadi?! Xo'sh, yoshlarni bunday "tartibli" qila oladigan qoida qonunchiligimizning qaysi bida belgilangan qoida ekanini ayta olasizmi? Ana shunday, ba'zan hayotning qonunlari ustunroq...

Yana bir yozilmagan qonun bor. Bu hozirgi kunda juda ommalashgan qonunlarimizdan biri – oliy ma'lumotli bo'lish. Farzandlar ko'p holatlarda ota-onasining orzu-istaklari sababli o'zlari yoqtirmagan kasbni egallashga majbur bo'ladi.

Chuqurroq mulohaza qilsak, bu kabi yozilmagan qonunlar mavjud va amal qilinishi kerak bo'lgan qonunlarni ham inkor etayotganga o'xshaydi. Farzandga inson deb qaraladigan bo'lsa, yuqoridagi kabi holatlarda uning erkinligi cheklanayotgani yaqqol namoyon.

Yuqoridagi gaplar bilan kimningdir fikrini o'zgartirish niyatim yo'q. Shunchaki kimlar uchundir hayot-mamotdek ko'rinadigan qonun-qoidalarning aslida hech qanday javobgarligi yo'q ekanini eslatib qo'yimoqchi edim, xolos.

FOYDASIDAN ZARARI KO'P

Bugun biz uchun ko'cha-ko'ydan shaurma, sendvich, gamburger, xot-dog sotib olish odatiy holga aylangan. Katta shaharlarda fast-fudlarni taklif qiladigan oshxonalar ko'payib bormoqda. Fast-fudlarga tez tayyorlanadigan taomlar kiradi.

Tez ovqatlanish salomatligimiz uchun xavfli. Tez ovqatlanish deganda nafaqat bunday yeguliklarni tayyorlashga sarflangan oz vaqt, balki uni tez iste'mol qilish holatini ham tushunishimiz kerak. Ko'pchiligimiz tez ovqatlanish tizimi tanamiz uchun qanchalik foydali yoki zararli ekani haqida umuman o'ylamaymiz ham. Hattoki, bunday yeguliklarning foydasi yo'qligiga shubha qilsak ham, negadir fast-fudlarni qayta-qayta sotib olaveramiz. Aslida ularning foydasidan zarari ko'p.

Keyingi paytda ko'pchiligimiz ovqat tayyorlash uchun vaqtimizni qizg'anamiz yoki uydagi ovqatdan ko'ra boshqacharoq, noodatiy narsalarni tanovul qilishni istaymiz. Shunga o'xshash holatlar tez tayyorlanadigan ovqatlarga bo'lgan ehtiyojimizni oshirmoqda.

Aslida esa bunday "tezpishar taomlar" sog'lig'imiz uchun o'ta zararli. Fast-fudlarni muntazam iste'mol qilish xolesterin miqdorini oshiradi, oshqozon-ichak trakti hamda yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini keltirib chiqaradi. Fast-fudlarda ko'p miqdorda yog'lar va konservantlar mavjud. Vitaminlar va minerallar esa bunday taomlarda deyarli yo'q.

Hech qanday fast-fud sog'lom oziq-ovqatning o'rnini bosa olmaydi. Bu esa sog'lig'ingizni xavf ostiga qo'yishga arzi olmaydi!

Gulnargiz XUDOYBERDIYEVA,
O'zDJTU talabasi

INSON
va qonunMUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olinganBosh
muharrirAsliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Akbar Musayev
Xayotjon Klichev
Sevara O'rinboyeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza ErgashevaTahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.Navbatchi
Xurshid SultonovSahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch"
ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter ba-
zasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq
hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasi-
da chop etildi.Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uyTiraji – 4113
Buyurtma – 1851Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 19:00

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18

Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5